

**Aziz va yagonamsan, jonajon O'zbekistonim!**

# Tong yulduzi

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

N:33 (67198)

2018-yil 13-avgust

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqib boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092


## MAKTAB YARMARKALARI

### barchasi farzandlarimiz baxt-u iqboli uchun

Mana, yangi o'quv yili boshlanishiga ham sanoqli kunlar qoldi. Yozgi ta'tilda so'lim oromgohlar qo'ynida, baland tog'lar bag'rida maroqli hordiq chiqargan o'quvchilar maktab boshlanishini, qadrdon do'st-u dugonalari bilan uchrashishni intilqlik bilan kutmoqda. Ota-onalar esa farzandlari uchun zarur o'quv qurollari, maktab formalari sotib olish taraddudiga tushgan.

Umumta'lim maktablari o'quvchilarini asosiy turdagi o'quv qurollari, darsliklar, maktab formasi, kiyim-kechak va poyabzallar bilan ta'minlash maqsadida joriy yilning 10-avgustidan 10-sentabrigacha respublikada jami 1325 ta maktab yarmarkasi tashkil etish ko'zda tutilgan. E'tiborlisi, ushbu yarmarkalarning 931 tasi umumta'lim maktablarida faoliyat yuritishi rejalashtirilgan.

(Davomi 3-bet da)



- Yozgi ta'tilda miriqib dam oldik. Endi esa o'quv yili boshlanishini intilqlik bilan kutyapmiz, - deydi poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 38-umumta'lim maktabi o'quvchisi Madinabonu Bahodirova va Mirobod tumanidagi 328-umumta'lim maktabi o'quvchisi Mahbubaxon Bahromova.



# GAZETAMIZNING YOSH MUXBIRLARI TALABA BO'LDI

**Bugun erta tongdan qo'l telefonim ketma-ket jiringladi. Telefonni olsam, u tomondan sevinchi ichiga sig'mayotgan ayol kishining ovozi eshitildi. Qisqagina salom-alikdan so'ng, «Feruzaxon, qizim 162 ball to'plab, o'qishga kirdi», deya oldi, xolos. U hamkasbim Manzura opa edi. Ularni tabriklar ekanman, bu xushxabardan mening ham ko'zimga yosh keldi. Sevinishga arziydi, chunki opaning qizlari Gulchehra ikki yildan buyon oliy o'quv yurtiga imtixon topshirar va har gal omadi chopmas edi. Mana, nihoyat uchinchi yili O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining ingliz tili filologiyasi yo'nalishi talabasi bo'ldi.**

Gulchehra 4-sinfda o'qib yurgan davridayoq «Tong yulduzi» gazetasida kichik xabarlar, maqolalari bilan qatnashardi. Keyinchalik «Ingliz tilini o'rganamiz» sahifasida muntazam maqolalari chop etildi.



Gulchehra Ubaydullayeva

**- Bu yil test sinovlari shaffof va adolatli tarzda o'tgani uchun Prezidentimizdan cheksiz minnatdorman. Qolaversa, ota-onam, aka-opalarim, ustozlarim, dugonam Fazilat Mirahmedovanning ishonchini oqlaganimdan xursandman. Men har qanday sharoitda ham izlanishdan, o'qib-o'rganishdan charchamadim. Endi bilsam, bu mening yutug'im ekan.**

Bu xushxabardan so'ng ishxonamga qanday yetib kelganimni ham sezmay qoldim. Yaxshi kayfiyat bilan

endi ish boshlagan ham edimki, eshik ohistagina taqilladi. Samarqandlik yosh muxbirimiz Malika Ergasheva onasi Umidaxon bilan quvnoq kayfiyatda kirib keldi.

- Assalomu alaykum, ustoz, men Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti talabasi bo'ldim, - dedi Malika ko'zlarini quvna.

- 230 ball to'plab, universitet bo'yicha 1-o'rinni egallabdi, - deya qo'shimcha qildi Malikaning onasi Umidaxon sevinch ko'z yoshlarini artarkan.

Ularni ham tabriklar, test sinovlari taassurotlari bilan qiziqdim.

- Imtixonlar adolatli tarzda o'tdi. Javoblar ham test bo'lgan kunning ertasigayoq e'lon qilindi. Menga har tomonlama ko'mak bergan ota-onam, yaqinlarim, ilm-u ma'rifatga boshlagan ustozlarimga chin yurakdan rahmat aytaman, - deydi yosh muxbirimiz hayajonini yashirolmay.

Biz Malikaning o'tgan yillar davomida qo'lga kiritgan

yutuqlarini birma-bir yodga oldik. Uning ilk maqolasi 6-sinfda o'qib yurgan davridayoq

«Tong yulduzi» gazetasida bosilgandi. O'sha yili uning «Tong ifori» she'riy to'plami ham chop etildi. 6-sinfda «Ka-

malak» yulduzlari respublika bolalar ijodiyoti festivali g'olibi, «Mustahkam oila - oqibatli bolalar» shiori ostida

o'tkazilgan «Oila - mening qutlug' bog'im» tanlovining viloyat bosqichida 1-o'rinni, 7-sinfda esa «Tong yulduzi» gazetasida e'lon qilingan «Mustaqillik madhi bolalar ijodida» respublika ijodiy ishlar tanlovida 3-o'rinni hamda «Kitobsevarlar» ko'rik-tanlovining Respublika bosqichida faxriy o'rinni egalladi va Xalq ta'limi vazirligining diplomi bilan taqdirlandi. 8-sinfda «Topqir, ziyarak, bilimdon» intellektual bellashuvning viloyat bosqichida 1-o'rinni, 9-sinfda esa «Konstitutsiya - baxtimiz poydevori» respublika ko'rik-tanlovining insholar yo'nalishida eng faol ishtiroki uchun XTV faxriy yorlig'i bilan taqdirlandi. Bu kabi ro'yxatni uzoq davom ettirish mumkin.

Malika bilan suhbatimiz hali tugamay, gazetamizning yana bir faol muxbirlaridan Sarvinoz Nazarovanning quvonchiga sherik bo'ldik. Sarvinoz 2015-yilda «Tong yulduzi» gazetasida e'lon qilingan «ERUDITS» («Ingliz tili bilimdonlari») Respublika tanlovida nasriy tarjimalari bilan ishtirok etib, 3-o'rinni egallagandi. U poytaxtimizning 180-umumta'lim maktabini, so'ng O'zbekiston davlat jahon tillari qoshidagi akademik litseyini muvaffaqiyatli tamomladi.



Malika Ergasheva

- Ota-onam yoshligimdan o'qishimga alohida e'tibor qaratishgan. Ayniqsa, badiiy kitoblarni akalarim bilan qo'lma-qo'l qilib o'qir edik, fikrlashardik, bahslashardik.

tiliga o'girish niyatidaman, - deydi Sarvinoz opangiz. Aslida Sarvinoz bu kabi ezgu ishlarga ilk qadamni qo'yishga ulgurdi. U yillar davomida buyuk allomala-



**- Xorijiy tillarni puxta o'rganib, xalqlar o'rtasidagi do'stlik aloqalarini mustahkamlashga o'z hissamini qo'shmoqchiman, - deydi Sarvinoz Nazarova.**

Menda til o'rganishga qiziqish kuchli bo'ldi. Avval rus tili, keyin esa ingliz tili bilan mustaqil shug'ullana boshladim. Quvonchimning cheki yo'q. Chunki men O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining yapon filologiyasi yo'nalishi talabasi bo'ldim. Kelgusida boy adabiy merosimizni xorijiy tillarga tarjima qilishni, shuningdek, o'zga xalqlarning eng sara asarlarini o'zbek

rimizning dono fikrlari, hikoyat va rivoyatlari, shuningdek, o'zbek xalq maqollarini ingliz tiliga tarjima qilib, bosqich-ma-bosqich «Tong yulduzi» gazetxonlari e'tiboriga havola qildi. Aynan gazetamizda bosilgan ushbu tarjimalari asosida 2016-yil «Pearles of uzbek spirituality» («O'zbek ma'naviyati durdonalari») deb nomlangan mo'jazgina kitobi chop etildi.

**Aziz o'quvchilar! Ilm-u ma'rifat e'zozlangan jannatmakon yurtimizda yosh muxbirlarimiz ham test sinovlaridan eng yuqori ball to'plab, oliy o'quv yurti talabasi degan yuksak nomga musharraf bo'lishdi. Sizlarga hikoya qilganimiz dengizdan bir tomchi, xolos. Aslida astoydil tayyorgarlik ko'rgan bilimdonlar sinovlardan muvaffaqiyatli o'tishdi. Barcha talaba bo'lgan yoshlarni tabriklar ekanmiz, Siz ham ularga havas qiling, ibrat oling, ulardan yuksak cho'qqilarni zabt eting, deymiz. Shoir tili bilan aytganda, «Ulug' mo'jizalar oldinda» ekanligiga ishonang.**

Feruza SOYIBJON qizi



## MAKTAB YARMARKALARI

barchasi farzandlarimiz baxt-u iqboli uchun

(Davomi. Boshi 1-betda)

Biz esa bu yilgi maktab yarmarkalari faoliyati bilan yaqindan tanishish maqsadida poytaxtimizdagi «Toshkent» savdo majmuasiga bordik. Rastalarni aylanib, sotuvdagi mahsulotlarning sifati, narxi bilan qiziqdik. Aytish kerakki, bu yerda tashkil etilgan maktab bozorida o'quv daftari, umumiy daftar, kundalik daftari, rasm daftari, ruchka, portfel, bo'yoqlar, rangli qalamlar, qiz va o'g'il bolalar uchun poyabzallar, bolalar sport kiyimlari kabi 26 turdagi zaruriy o'quv qurollari va jihozlari sotuvi yo'lga qo'yilgan. Quvonarlisi, deyarli barcha mahsulot yurtimizda ishlab chiqarilgan bo'lib, narxlar hamyonbop. Sifati esa chet elnikidan aslo qolishmaydi.

– Farzandim Madina bu yil poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 29-umumta'lim maktabining 4-sinfiga o'tdi. Bugun qizim bilan maktab yarmarkasiga keldik. Bu yil mahsulotlarning sifati, narxi avvalgi yillarga qaraganda ancha yaxshi, – deydi Nargiza Tojiyeva.

Joylarda tashkil etiladigan maktab yarmarkalariga odatdagiday asosiy turdagi mahsulotlarni O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, «O'zto'qimachilik sanoat», «O'zcham sanoat» uyushmalari, «O'z davkitob savdota'minoti», «Sharq» kompaniyasi hamda «Sharq ziyokori» yetkazib beradi. Shuningdek, yarmarkalarda narx-navoning asossiz oshib ketishiga, to'lov terminallarining uzluksiz ishlashi-ga mas'ul idoralar biriktirildi.

– Kuni kecha onam bilan maktab bozoriga bordik. U yerda o'zim uchun zarur o'quv qurollarini xarid qildik. Ayniqsa, menga rangli qalamlarim juda yoqdi. Endi ular bilan chiroyli rasmlar chizaman, – deydi Andijon viloyati, Qo'rg'on tepa tumani, Dehqonchek qishlog'idagi 17-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi Mubina Umidjon qizi.

Aziz o'quvchilar, ishonamizki, Sizlar uchun yaratib berilgan bunday g'amxo'rliklarga javoban yuksak bilimingiz, a'lo o'qishingiz, namunali xulqingiz bilan yaqinlaringizning qalbini quvonchga to'ldirasiz.

Sa'dullo TURSINOVA

## OPAM SOXTA G'OLIBLIKNI TANLAMADI

To'rt opa-singil hovlidagi supachada eski xotiralarni eslab suhbatlashib o'tirardik.

Suhbatimiz davomida Sunbula opam bizlarga buvijonim haqidagi ibratli voqeani so'zlab berdilar:

– Bir kuni maktabda o'qituvchimiz «Balli, qizlar!» bellashuvi bo'lib o'tishi, unda sinfimizdagi barcha qizlar qatori meni ham qatnashishimni aytdi. Tanlovning eng murakkab sinovi «Mohir qo'llar» sharti edi. Bu shartni qanday bajarishimni o'ylab, boshim qotib turganida, xayolimga «Buvijonimning tikkan, to'qigan eng chiroyli qo'l mehnatlaridan foydalansam-chi», degan fikr keldi. Buni buvijonimga aytganimda, «Qizim, men bu buyumlarni sizlar uchun tikkan, to'qigan bo'lishim mumkin, ammo kimnidir aldash, chalg'itib, biron-bir tanlovda qatnashib, g'olib bo'lishing uchun emas. Avvalo, bu yolg'on ortidan kelgan soxta g'oliblik yaxshilikka olib kelmaydi. Yaxshisi, kel, senga tanlovgacha to'quvchilik va tikuvchilikdan saboq beray va o'zing chiroyli kiyimlar yaratgin», degandilar. Yana «Hunar o'rganish uchun kishiga qunt va sabr kerak. Sen mana shu xislatlarni o'zingda namoyon eta olsang, har qanday to'siqni yengib o'tasan. Unutma, mashaqqatlar ortidan hamisha g'alaba keladi», deya uqtirgandilar. Shunday qilib, buvijonim ko'magi bilan kashta tikish sirlarini o'rgana boshladim. Ha, aytganday, tanlovda o'zim tikkan buyumlar bilan «Mohir qo'llar» shartida yuqori ball to'plab, mutlaq g'oliblikni qo'lga kiritdim. Buning uchun buvijonimdan juda minnatdorman. Tanlovda g'olib bo'lganim uchun emas, bir hunarni egallaganim uchun, – deya Sunbula opam hikoyasini yakunladi.

Suhbatlashayotib, osmonga boqarkanmiz, go'yo yulduzlar orasidan buvijonim jilmayib turgandek edilar.

Laylo ESONMURODOVA,  
Qashqadaryo viloyati, Kitob tumanidagi  
5-umumta'lim maktabi o'quvchisi

## DUGONAMDAN O'RNAK OLDIM

Dugonam Laylo kitob mutolaa qilishni juda yaxshi ko'radi. Shu sababli, uyida o'z kutubxonasini tashkil qilgan.

Bir kuni dugonamni «Kitoblar dunyosi» do'konida uchratib qoldim. Shunda undan «Sen qanday kitoblar xarid qilyapsan?!» deb so'raganimda, Laylo, «Ustozim aytdi. Seton – Tomsonning «Lobo» nomli kitobini o'lyapman», deya javob berdi. Laylodan o'rnak olib, o'z kutubxonamga kitoblar yig'a boshladim.

Madina TURSUNBOYEVA,  
poytaxtimizdagi 59-DIUM o'quvchisi



Laylo Toshmatova  
o'z kutubxonasida.

## O'YI, RASM, CHIZSAM MAYLIMI?

– Qizalog'im, uy ishlarida menga katta yordam berding, endi dam ola qol.

– Oyi, charchaganim yo'q. Xo'p desangiz, rasm chizmoqchi edim.

– Unday bo'lsa, mayli, bolajonim...

Ruxshona har gal Zebo opaga uy yumushlarida ko'maklashganida va oyi-si bundan xursand bo'lganida shu gapni takrorlaydi. Chunki qizaloq bo'sh vaqtda rasm chizishni yoqtiradi-da.

Qolaversa, ota-onasi olib bergan o'yinchoqlarga matodan kiyimlar tikadi.

Qizidagi iste'dodni payqagan Zebo opa farzandini rasm to'garagiga olib boradi. Bu vaqtda Ruxshona maktabi qoshidagi



raqs to'garagiga qatnab, ustoz Anastasiya Fayzirahmonovadan ko'plab xalqlarning milliy raqslarini o'rganishga ulgurgan edi. Keyinchalik ustoz Olga Sondan tasviriy san'atning sirlarini ham qunt bilan o'zlashtira boshladi.

Poytaxtimizning Mirobod tumanidagi 31-umumta'lim maktabining 3-«G» sinf o'quvchisi Ruxshona Ilshayeva ko'cha-ko'ya bir-bir foydali mashg'ulot bilan shug'ullanmay, bekor yurgan

tengdoshlarini ko'rsa, onasiga: «Kecha ko'chada bir bolani daraxt shoxlarini sindirayotganini, qo'shnimizning ochilib turgan gullarini uzayotganini ko'rib, xafa bo'ldim, «Nega unday qilayapsan?» degandim, «Senga nima», deb o'tib ketdi. Oyi, nega shu bolalar bekor yurishni yaxshi ko'rarkin-a?» deya noliydi.

– U qaysi mavzuda rasm chizmasin, barchasini o'zining beg'ubor dunyoqarashidan kelib chiqib tasvirlashga in-

tiladi. Qolaversa, Ruxshona ranglarni yaxshi his qiladi. Bu bo'lajak rassom uchun muhim jihat hisoblana-di, – deydi Olga Rudolfova.

Ruxshona bu yilgi yozgi ta'tilda Astrid Lindgrenning «Mittivoy va Karlson» hamda «Bolalar antologiyasi» kitoblarini o'qib chiqdi. U kelajakda tarjimon bo'lishni orzu qilyapti. Shuning uchun xorijiy tillarni puxta o'rganmoqda. Shu sabab, oyiysi unga kichik-kichik lug'at kitoblar, so'zlash-gichlar olib kelib beradi. Tarjimon bo'lish uchun ko'p o'qish kerakligini uqtiradi.



Aziz o'quvchilar, siz ham ta'til kunlaringizda bo'sh vaqtningizni kitob mutolaasi-ga, sport bilan shug'ullanishga sarflayotgan bo'lsangiz kerak-a? Ha, deysizmi? Barakalla. Agar yoshlikning oltindan qimmat damlaridan unumli foydalanib, o'z kelajagingizni bunyod eta olsangiz, bu orqali yurt taraqqiyotiga, ona Vatanimiz yuksalishiga katta hissa qo'shgan bo'lasiz. Ishonamizki, buni barchangiz xohlaysiz.

Nodira NAZAROVA

**Ko'rish va yangilik yaratish  
tengsiz xursandchilikdir.**

**Tong  
yulduzi**

## YURAGIMDA QANOT YOZDI BAXT

So'lim Surxon vohasining Hisor tog'lari bilan tutash bo'lgan go'zal maskan – Dashnobod qishlog'ida tug'ildim. Bu yil 11-sinfga o'tdim. Ustozlarim menga hayotga teran nigoh bilan boqishni, yuksak ilm sohibi bo'lib, oldinga intilib yashash zavqini o'rgatishdi. Qishloqdoshlarim bir-biridan mehribon, ochiqko'ngil, mehmondo'st.

Ta'tilda oliy o'quv yurtiga tayyorgarlik ko'rish uchun Toshkent shahriga keldim. Ota-onam mening bilim olishim uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berishgan. Imkoniyatlardan foydalangan holda ta'til davomida qo'shimcha darslarga borayapman. Poytaxt men o'ylagandan ham go'zalroq ekan. Bu yerda kunlar qanday o'tayotganini ham sezmayсан, kishi. Toshkentning go'zal ko'chalari, osmono'par binolari meni lol qoldirdi.

Xullas, bu yerda juda ko'p taassurotlarga ega bo'ldim. Orzularim qanot yozmoqda. Nima bo'lganda ham ona Vatanimizning yuragida yashab, bilim olish men uchun zavqli kechayapti. Kelajakda o'zimning tinimsiz izlanishim bilan yetuk inson bo'lib, xalqimning og'irini yengil qilishga bor imkoniyatimni safarbar etaman.

**Baxtiniso G'AFFOROVA,**  
Surxondaryo viloyati, Sariosiyo tumanidagi  
19-umumta'lim maktabi o'quvchisi

## BUGUN DAM OLISH MASKANIDA...

**Sharof Rashidov tumanidagi Uaqsoy  
qishlog'ida pedagog Bahrom Ashurmatov  
rahbarligidagi yozgi dam olish maskaniga  
kelgan dam oluvchilar qalbida ushbu  
kunlar sira yoddan chiqmas lahzalar  
bo'lib qolsa, ajab emas...**

– Sharof Rashidov nomli oromgohda bolajonlarning ko'ngilli hordiq chiqarishlari uchun barcha sharoitlar yetarli, – deydi Bahrom aka Ashurmatov. – Bu so'lim go'shida 100 nafar o'g'il-qiz uch mavsumda ko'ngilli hordiq chiqarib, salomatliklarini mustahkamlamoqda.

Darhaqiqat, oromgoh ostonasiga qadam qo'yishingiz bilan «Bugun dam olish maskanida» yozuviga ko'zingiz tushadi. Uning yonida bolajonlarning oromgohdagi hayotini aks ettiruvchi fotostendlar osig'liq.

Odatdagidek, ertalabki mashqlardan so'ng ular mazali nonushtaga o'tirishadi. So'ngra, bolajonlarni «O'rdak-G'oz», «Ovozidan tanib ol», «Chaqqonlar, zukkolar va epchillar» sport musobaqalari, «Mening o'lkam – baland tog'lar qo'ynida» kabi mavzularda ko'rik-tanlovlar kutadi.

Umuman olganda, viloyatimizda o'quvchilarning yoz mavsumida ko'ngilli dam olishlari uchun ko'pgina ishlar amalga oshirilmoqda. Shahar tashqarisidagi 12 ta maktablar qoshida esa 58 ta oromgoh faoliyat ko'rsatib, ularda jami 13.525 nafar o'g'il-qiz hordiq chiqarmoqda. Ayniqsa, Zomin tumanidagi «Lochin» hamda G'allaorol tumanidagi «Kamolot» oromgohlari faoliyati e'tiborga loyiq.

**Abdulla SAIDOV,**  
Jizzax viloyati

**Eng  
chiroyli,  
zamonaviy va  
shinam... Poytaxt-  
timizning Chilonzor  
tumanida yangi tashkil  
qilingan maktabgacha  
ta'lim muassasasiga  
ana shunday ta'rif  
berildi.**

Bog'chaning ochilish marosimiga O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vaziri Shin Agripina Vasilyevna, Toshkent



ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qaroriga muvofiq tumanimizda 25 ta nodavlat ta'lim

tillari, mental arifmetika, shaxmat, ushundan saboq beriladi. Shuningdek, muassasamizda pediatr, ortoped, ruhshunos, logoped, bolalar uqalovchisi xizmati mavjud. Musiqa va tasviriy san'at xonalari kichkintoylarning ijodiy qirralarini to'laqonli namoyish etishga xizmat qiladi. Tajribali oshpazlarimiz tomonidan kichkintoylar sog'lom va baquvvat bo'lishlari uchun 5 mahal vitamin va minerallarga boyitilgan ovqat bilan ta'minlanadilar, – deydi bog'cha mudirasi Go'zal Dolimova.

Ma'lumot o'rnida shuni aytish kerakki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining topshirig'iga binoan, tuman hokimligi tomonidan maktabgacha ta'lim yoshidagi bolajonlarni to'liq qamrab olish maqsadida 2018–2019-yillarga mo'ljallangan chora-tadbirlar dasturi tasdiqlanib, unga ko'ra

16 ta yangi tipdagi zamonaviy ko'rinishga ega bo'lgan xususiy maktabgacha ta'lim muassasalari qurilishi va foydalanishga topshirilishi uchun tadbirkorlarga yer maydonlari ajratilgan bo'lib, bugungi kunda qurilish ishlari boshlab yuborilgan.

**Ozoda  
TURSUNBOYEVA**



shahar hokimi Jahongir Ortiqxo'jayev, Chilonzor tumani hokimi Davron Hidoyatov hamda tumandagi sektor rahbarlari ishtirok etishdi. Bayram tantanasida hozir bo'lganlar ushbu muassasada yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishdilar. Zamonaviy ko'rinishga ega bo'lgan nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasi bolalarga xos va mos tilda «CHICO» deb nomlandi.

– Prezidentimizning 2017-yil 15-sentabrdagi «Nodavlat ta'lim xizmatlari

muassasalari tashkil etilgan. Bularning qatorida bizning maskanimiz ham bor. Zamonaviy jihozlar bilan ta'minlangan bog'chada kichkintoylar uchun ingliz, koreys



## «KAMALAK»DA MAROQLI HORDIQ

**Yozning jazirama kunlarida bolalarning maroqli dam olishlari uchun yurtimizdagi aksariyat umumta'lim maktablarida oromgohlar tashkil etilgan bo'lib, unda bolajonlar bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazmoqda.**

Oromgohlardagi shart-sharoitlar esa kishi havasini uyg'otadi. Jumladan, turli sport o'yinlaridan tortib, qiziqarli to'garaklar o'quvchilarning sog'lom muhitda hordiq chiqarishlarini ta'minlamoqda.

Poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 288-umumta'lim maktabi qoshida faoliyat yuritayotgan «Kamalak» nomli yozgi sog'lomlashtirish oromgohi ana shunday shukuhli maskanlardan. Dam olish maskanida o'quvchilarning qiziqishlariga qarab turli fan va sport to'garaklari tashkil qilingan. Ayniqsa, matematika, tasviriy san'at, ingliz va rus tili, musiqa, raqs to'garaklarida o'quvchilar olgan bilimlarini yanada mustahkamlamoqda. Dam oluvchilar o'rtasida turli sport musobaqalari o'tkazilib, g'oliblar faxriy yorliq va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.



Shuningdek, oromgohda Yoshlar ittifoqi bilan hamkorlikda «Yo'zni «Kamalak» bilan!» aksiyasi o'tkazildi. Tadbir davomida turli qiziqarli o'yin va bellashuvlar tashkil etildi. Aytish kerakki, bunday tadbirlar o'quvchilarning yozgi ta'tilini maroqli o'tishida muhim ahamiyat kasb etadi.

**Manzura  
UBAYDULLAYEVA**

# USTOZ BERGAN XAZINA

**Aziz bolajonlar! Yozgi ta'til nihoyalab borgani sari ustozlaringiz-u qadrton bilim maskaningizni juda-juda sog'inganingizni his etib turibmiz. Bilsangiz, men ham maktabdagi mehribon ustozlarimni hali-hamon sog'inib eslayman. Ularning qimmatli pand-nasihatlarini shirin xotiralar bilan yodga olaman.**

Jumladan, birinchi ustozim Ziyoda opa menga harf tanitish, qo'limga qalam tutqazib, «Ona», «Vatan» deya yozishni o'rgatish bilan birga, katta hayotiy saboq berganlar. Ertaklarda aytilgan iday, bu men uchun ming tilloga teng

xazinadir. Bu xazinadagi dur-u javohirlardan biri esa kitoblarda o'qiganingiz halollikni anglatguvchi bir rivoyat. Uni o'qituvchim shunchalik mehr bilan qalbimizga joylab qo'yg'an ekanlarki, katta bo'lganimizdan keyin ham hech bir sinfdosh do'stim hayotda noto'g'ri yo'ldan bormadi. O'sha rivoyatdagi ustoz shogirdlariga tovuqni hech kim ko'rmaydigan joyda so'yib kelishni buyurganida, ulardan biri «Dunyoda bunday joyning o'zi yo'q, barcha ishlarimizni Yaratgan zot ko'rib, vijdonimiz esa nazorat qilib turar ekan», degan edi. Men ana shu rivoyatni eshitganimdan buyon hayotda doimo to'g'ri yashashga, vijdonan mehnat qilishga intilib kelaman.

Yuqori sinfda esa ona tili va adabiyot fani o'qituvchimiz Raisa opa Obidovna bizga qiz bolaning fe'l-atvori, yurish-turishi haqida ko'pgina nasihatlar qilganlari yodimda. 9-sinfigimda o'zimdanda kattaroq qizlarga havas qilib, maktabga uzun zirak taqib borgandim. Shunda ustozim: «Iye, sinfning a'lochi, namunali qizlari

shunday zirak taqadimi? Yo to'y-bazmga keldingizmi, Jo'rayeva?!» deb yumshoqqina tanbeh bergandilar. O'shanda qilgan nomaqbul ishimdanda qattiq uyayib, yuzimga husn emas, aksincha, nomimga ortiqcha so'z qo'shgan o'sha zirakni maktabimizga boshqa taqib kelmadim. Maktabni bitirgach, tibbiyot kollejiga o'qishga kirdim. O'zimni qandaydir ulg'aygandek sezdimmi yoki boshqa

qizlardan o'rnak olibmi, bir gal labimga bo'yoq surib, ta'lim maskaniga kelganimda, ustozim Hosiyat opa menga tanbeh berdilar. Ularning nasihatlariga quloq tutib, bilim maskanini QIZIL LAB BO'YOG'I bilan emas, aksincha, QIZIL DIPLOM bilan yakunladim.

Oliygohdagi ustozlarim esa menga yanada intiluvchan, mehnatsevar bo'lishni o'rgatdi. Jumladan, «Demokratik jamiyat qurish nazariyasi» darsidan saboq bergan Dilfuza opa Hamidulayeva daftarimning bir chekkasiga «Buyuklikka intilib yashang», deb yozib qo'ygandi. Ustozning bu so'zlari hali-hamon qulog'im ostida jaranglaydi. Chunki barcha ustozlarimning ishonchlarini oqlashim, ular orzulagan inson bo'lishim kerak-da. Bo'lmasa, ular menga bergan xazinani shunchaki ko'kka sovrub yuborgan bo'lamani! Men esa olgan barcha bilimlarimni sizlarga, farzandlarimga ulashishni istayman!

Sayyora QODIROVA

## GRAMMAR RULE

Today we learn new information about «used to». Structure Used to+verb.

We use this structure to habit in the past also expresses the idea that something was an old habit that stopped in the past. For an action repeated in the past, but it is not usually done now. For instance: *Madina used to eat meat, but nowadays she is a vegetarian.* Also, you may use this structure to talk about past facts which is no longer true. For example: *Setora used to be the best student in class, but now Odina is the best.*

## COUNTRY IDIOMS

Let's travel around the world and learn new idioms.

Idioms	Definitions
Take French leave	To leave work without permission.
Pardon my French	Used to say sorry for using offensive language.
Go Dutch	To share the cost of something with somebody.
Indian summer	A period of unusually warm weather in autumn.
It's all Greek to me	I cannot understand it at all.



Painter: Yoqubbek HAJLIMBEKOV

1. *That's just foolish. Pardon my French.*
2. We always ... on dinner with our colleagues.
3. The caretakers had taken ...
4. We are currently enjoying an...
5. She tried to explain the rules, but...

Ma'mura G'ULOMOVA

## PLAYFUL BOY

Read the text and open the brackets with English translation.

Jalol was a (dangasa)and (o'yinqarok) boy. He played hard at the playground and was (juda charchagan) when he got home. His mother told him to get ready for a bath. The little boy (bosh irgitmoq) and went straight to his room. His mother was waiting for Jalol's room. He saw that Jalol was already asleep. And one shoe was off but one shoe was still on his right foot. His mother took off Jalol's shoe. She dressed him in his pajamas and left him to sleep.

**Moral of the story.** (Agar) you play too much, you will be tired. (Lekin siz uchun) study is more important than play.



## Multi meaning words

Look at the pictures and learn more meaning.

duck, bow, bat



Dinora ABDULLAJONOVA

## WHO IS LEARNED?

Can you write pronouns?

- How old is Jamol?
- ... is 12
- What does your father do?
- ... is a teacher
- What does your friend do?
- ... is a pupil
- Is your grandfather at home?
- No ... is out.

Mohira ABDUVOITOVA,  
the pupil of school № 31  
in Bekobod district, Tashkent region



# «TEMURBEKLAR MAKTABI»

(Davomi.  
Boshi o'tgan sonlarda) **TURKUMIDAN**

## QARORI O'ZGARDI

Oktabr oyining 23-sanasida tuman IIB boshlig'i kutilmaganda Ergashlarning xonadoniga kirib keldi. Hol-ahvol so'rashgach, Ergashning onasiga:

– Kelin, marhum ukamiz Yondoshjonni ko'rsatgan jasorati uchun Yurtboshimiz «Mardlik» ordeni bilan mukofotladi.

Ertaga shu mukofotni qabul qilib olish uchun Ichki ishlar vazirligiga borishimiz kerak. Ordenni sizga vazirimizning shaxsan o'zlari topshirmoqchilar, – dedi.

– Men ham borsam bo'ladimi? – deb so'radi Ergash onasiga qarab.

– Maktabing-chi?

– Qahramon hamkasbimizning o'g'liga maktab direktoridan men ikki kunga javob olib beraman.

Keyin qoldirgan darslaringni o'zlashtirib olasan, to'g'rimi? – tuman IIB boshlig'i Ergashga ma'noli qarab qo'ydi.

– Ha, albatta, o'zlashtirib olaman, – dedi shosha-pisha Ergash xuddi onasi yo'qsa rozi bo'lmaydiganday.

Toshkent shahrida, Ichki ishlar vazirligining Madaniyat saroyida bo'lib o'tgan o'sha bayram tadbirini Ergash hech qachon unutmasa kerak. Zal ichki ishlar organlari xodimlari bilan liq to'lgan. Oralarida generallar ham bor. Minbarda turgan kishi mukofotlanganlarni birma-bir chaqiryapti. Vazir ularga orden-medallarni topshiryapti. Mukofotlanganlar esa



zalga o'girilib tantanavor ohangda «O'zbekiston Respublikasiga xizmat qilaman!» deb aytaypti.

Otasining ismi sharifi yangraganida, onasi bilan birga Ergash ham o'rmidan turdi. Birga sahnaga ko'tarilishdi.

Vazir ordenni Ergashning onasiga topshirgach, o'tirganlarga qarab:

– Bu hamkasbimiz qo'shni davlatdan aylanma yo'llar orqali chegarimizdan o'tgan qurollangan giyohfuruslarni qo'lga olish chog'ida qahramonlarcha halok bo'lgan. Mana, uning o'g'li ham azamat yigit bo'lib voyaga yetayotgan ekan. O'g'lim, oting nima? – deb so'radi Ergashning yelkasidan quchib.

– Ergash! – deb javob berdi u.

– Barakalla! Ajabmas, Ergashbek ham otasi izidan borib ichki ishlar organi xodimi bo'lsa.

– Yo'q, hozir niyatim o'zgardi. Endi chegarachi bo'lmoqchiman.

Hech qanday yovuz niyatli kimsaning chegarimizdan o'tishiga yo'q ymayman!

– Yasha, o'g'lim, niyatingga yet! – dedi vazir uning kichkina yelkalaridan mahkamroq quchib.

– O'zbekiston Respublikasiga xizmat qilaman! – dedi bunga javoban Ergash jarangdor ovozda.

Hamma, hatto generallar ham, to'rda qo'r to'kib o'tirganlar ham o'rmidan turib, qarsak chalib yuborishdi.

(Davomi bor)

Qadim zamonlar o'rmon chetidagi qishloqda bir bog'bon yashagan ekan. Uning kattagina bog'i bo'lib, u yerda turli dov-daraxtlar, chiroyli gullar o'sarkan. Bog'da yana olma daraxti ham bo'lib, mevalari juda sarxil ekan.

atrofida aylanishib, «Iltilmos, daraxtni kesma! Bolalik chog'ingda uning soyasida birgalashib o'ynardik. Bu bizning uyimiz. Agar uni kessang, boshqa borar joyimiz yo'q», deya yolvorishibdi. Bog'bon esa ularning gapini umuman e'tiborga olmabdi.

– Iltilmos, kesishni to'xtat! Meni va bolalarimni nobud qilma! – deya yig'lab yolvoribdi olmaxon.



## OLMA DARAXTI VA BOG'BON

(Ertak)

– O'tinaman, uyimni vayron qilma! – deya yig'labdi mitti qushcha.

– Daraxtni kesma, – deya chirillabdi chigirtka.

Biroq bog'bon bolaligini, yoshlikdagi do'stlarini butkul unutgan edi. U boltani yanada qattiqroq zarb bilan ura boshlabdi.

– Dalada og'ir mehnat qilayotganingda sen uchun qo'shiqlar kuylaymiz. Farzanding yig'laganda uni ovutamiz, unga orom baxsh etamiz. Toliqqan chog'laringda esa kuylarimiz senga kuch bag'ishlaydi, – deya barcha jonzotlar bog'bon atrofida gir aylanibdi. Lekin bu nolalarning hech

biri o'tkir bolta tig'ini qaytara olmabdi. Bog'bon hali ham bor kuchini ishga solib daraxtni qulatilishga harakat qilayotgandi. Shu payt tasodifan bog'bonning ko'zlari qandaydir yaltirayotgan narsaga tushibdi. Borib ko'rsa, bolalarning asalga to'la uyasi ekan. Barmog'i bilan asaldan ozzgina tottingach, uning qalbida yana o'sha bolalik hislari uyg'onibdi. Yoshlik xotiralari ko'z oldida qayta jonlanibdi. U atrofida bo'layotgan voqealarga e'tibor bera boshlabdi.

Diqqat bilan quloq solsa, arilarning «Biz seni doim shirin bol bilan ta'minlaymiz», olmaxonning «Bar-

cha yong'oqlarimni sen bilan teng bo'lishaman», deyshayotganini, qushlarning esa «Biz sen istagan-cha ajoyib qo'shiqlar kuylaymiz», deb chirillashayotganini eshitibdi.

Nihoyat, bog'bon o'zining xato ish qilayotganini anglabdi va boltasini yerga tashlabdi. Kesilayotgan daraxt jonzotlarning boshpanasi ekanligini tushunib yetibdi. So'ng, kichik do'stlariga shunday va'da beribdi:

– Men o'z xatoimni anglab yetdim. Bu daraxtni hech qachon kesmaslikka so'z beraman. Endi tinch va baxtiyor hayot kechirishlaringiz mumkin.

Barcha jonzotlar asalarilarga o'zlarining cheksiz minnatdorligini izhor qilishibdi. Shunday qilib, barcha jonzotlar olma daraxtida uzoq va baxtli hayot kechiribdi.

Ingliz tilidan  
Muhammadsharif FAYZULLAYEV  
tarjimasi



**TINCHLIK  
QUYOSHI**

Yurtimizda charaqlaydi,  
Tinchlik quyoshi.  
Mehnatkashdir xalqimizning –  
Keksa-yu yoshi.  
Kundan kunga chiroy ochar,  
Bu bog'-u bo'ston,  
Gullab-yashna sen doimo –  
Jon O'zbekiston!  
Bu quyoshning porloq nuri  
Aslo so'nmasin.  
Tinch elimga g'animlar hech  
Rahna solmasin.  
Boshimiz uzra bu oftob  
Mangu porlasin,  
Biz baxtiyor avlodlarni  
Baxtga chorlasin!

Mohimbonu OBIDOVA,  
Namangan viloyati, Pop tumanidagi  
40-umumta'lim maktabi o'quvchisi



**BIZ YOSH  
NIHOLLARMIZ**

Maktabimiz bog'ida,  
O'tqazdik biz yosh nihol.  
Parvarishlab qaradik,  
Nihol o'sdi bezavol.  
Biz ham nihol singari,  
O'smoqdamiz erkin, shod.  
Mustaqil, hur diyorni,  
Bizlar qilamiz obod.  
Ota va onamizning,  
Bizlar ko'rar ko'zimiz.  
Yurtga sodiq bo'lmoqlik,  
Chin farzandlik so'zimiz.

Guliruxsor RO'ZMATOVA,  
Xorazm viloyati, Yangiariq  
tumanidagi 38-ixtisoslashtirilgan  
umumta'lim maktabi o'quvchisi

## QO'NG'IZ

Sokin oqshom paytida,  
Bir qo'ng'iz uchib keldi.  
Yorqin chiroq nurida,  
Xuddi shamoldek yeldi.  
Jajji ukam yugurib,  
Bordi uning yoniga.  
Qandaydir xabar aytdi,  
G'ing'illab qulog'iga.  
So'ng zulmatning qa'riga,  
Qo'ng'izoy uchib ketdi.  
Ukamdan so'rdim darhol,  
Erta kelishin aytdi.

Maftuna NOSIROVA,  
Farg'ona viloyati, Beshariq  
tumanidagi 21-umumta'lim  
maktabi o'quvchisi



## JAKARTA

### SPORTCHILARNI CHORLAMOQDA

**Shu kunlarda Osiyo qit'asi chinakam bayram shukhi bilan yashamoqda, desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi.**

Boisi, joriy yilning 18-avgust – 2-sentabr kunlari Indoneziyaning Jakarta va Palembang shaharlarida XVIII yozgi Osiyo o'yinlari o'tkaziladi. E'tiborlisi, ushbu nufuzli sport anjumanida 232 nafar atletimiz sportning 30 turi bo'yicha g'oliblik uchun o'zaro bahslashadi.



18<sup>th</sup> ASIAN GAMES  
**Jakarta Palembang 2018**



Kuni kecha O'zbekiston Milliy olimpiya qo'mitasida mazkur musobaqada ishtirok etadigan sportchilarni rasmiy kuzatish marosimi o'tkazildi. Tadbir-da soha mutasaddilari, sportchilar, ularning ota-onalari, murabbiylar, keng jamoatchilik vakillari hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'zbek sportchilari Osiyo o'yinlarida 1994-yildan buyon muntazam ravishda muvaffaqiyatli qatnashib kelmoqda. Yurtdoshlarimiz o'zlarining bor mahoratlarini ishga solib, haqli ravishda kuchlilar qatorida e'tirof etilmoqda. Bir so'z bilan aytganda, o'n sakkizinchi marotaba o'tkazilayotgan Osiyo o'yinlarida vakillarimiz Vatanimiz sharafini munosib himoya qilib, Prezidentimiz va xalqimiz ishonchini oqlash uchun o'z mahorati, tajriba va salohiyatini to'liq namoyon etishiga shak-shubha yo'q.

XVIII yozgi Osiyo o'yinlarining ochilish marosimida O'zbekiston delegatsiyasining bayroqdori etib tayinlangan boks bo'yicha Osiyo chempioni, Osiyo o'yinlari sovrindori, ko'plab xalqaro turnirlar g'olibi Isroil Madrimov va Olimpiya o'yinlari chempioni, jahon chempionati sovrindori Hasanboy Do'stmatov tadbirida so'zga chiqib, barcha sportchilarimizga omad va zafarlar tiladi.

Sa'dullo TURSINOV

## MAHALLA YOSHLARI BELLASHDI

**«Yoshlar jinoyatchilikka qarshi» shiori ostida Surxondaryo viloyatida 16–30 yoshgacha bo'lgan mahalla yoshlari o'rtasida sport musobaqalari o'tkazildi.**



Viloyatning 14 ta tuman va shaharlaridagi mahalla yoshlari sportning mini-futbol, voleybol, suzish, shaxmat, shashka, arqon tortish, tosh ko'tarish, stol tenisi turlari bo'yicha o'zaro bellashdi.

Shu kuni markaziy ko'chalarda «Yoshlar jinoyatchilikka qarshi!» shiori aks etgan panno (banner)lar o'rnatildi.

Termiz shahridagi 30 ta mahalla yoshlari ham mazkur musobaqada faol ishtirok etishdi. Xususan, Termiz shahridagi «Guliston» mahallasida joylashgan suzish havzasida 84 nafar yoshlar suzish bo'yicha o'zaro bellashdi.

Ta'kidlash joizki, mahalla bosqichida g'oliblikni qo'lga kiritgan yoshlar endilikda mintaqa (mahallalararo) bosqichida ishtirok etish huquqini qo'lga kiritdi.

## POPLIKLAR G'OLIBLAR SAFIDA

**Rossiya Federatsiyasining Orenburg shahrida «Universal jang» sport turi bo'yicha Yevroosiyo chempionati bo'lib o'tdi.**

Unda Pop tumani Xalq ta'limi bo'limiga qarashli 49-umumta'lim maktabining 2-sinf o'quvchisi Jahongir Olimjonov 24 kg vaznda hamda 4-sinf o'quvchisi Suhrobjon Tursunaliyev 27 kg vaznda 1-o'rinni egallab, oltin medal bilan taqdirlandi.

19 ta davlatdan sportchilar ishtirok etgan ushbu musobaqada O'zbekiston terma jamoasi umumjamoa hisobida 2-o'rinni egalladi.

Yosh sportchilarning erishgan muvaffaqiyatlarida tajribali murabbiy Zohidjon Usmonovning mehnati cheksiz.



Muhammadsodiq ALIMOV

# TENGDOSHLARIGA IBRAT

**Ahmadjon Ahmedov Xorazm viloyatining Bog'ot tumanidan. Bu yil Oltinqum shaharchasida joylashgan 2-umumta'lim maktabining 10-sinfiga o'tdi. Otasi Odilbek aka o'g'lidagi boksga bo'lgan qiziqishni sezib, uni 7 yoshidan tumandagi bolalar va o'smirlar sport maktabining boks to'garagi murabbiyi Ramil Sa'dullayevga shogirdlikka berdi.**

Ahmadjon o'tgan davr mobaynida mamlakat va xalqaro sport musobaqalarida faol ishtirok etib, sovrinli o'rinnlarni qo'lga kiritdi. Jumladan, 2016-yil Qozog'iston ochiq chempionatida 46 kg vazn toifasida oltin medalga sazovor bo'ldi. O'sha yil oktabr oyida Namangan viloyatida o'tkazilgan O'zbekiston chempionatida 46 kg vazn toifasida 1-o'rinni egalladi. 2017-yilning oktabrida Jizzax viloyatida o'tkazilgan Respublika chempionati hamda 6–10-dekabr kunlari Rossiya Federatsiyasining Yaroslavl shahrida jahon chempioni Aleksandr Lebedev xotirasiga bag'ishlangan xalqaro turnirda 48 kg vaznda 1-o'rinnlarni zabt etdi.

2018-yil Samarqand viloyatida o'tkazilgan O'zbekiston chempionatida 50 kg vazn toifasida qatnashgan sportchimiz navbatdagi oltin medalni qo'lga kiritdi.

– Kelgusidagi rejalarimizdan biri tumanimizdagi sportga ixlosmand o'quvchilar uchun alohida qo'shim-

cha dars mashg'ulotlari tashkilashtirish asosida ularni oliygohlarning jismoniy tarbiya yo'nalishlariga tayyorlashdir. Agar maqsadimizga erishsak, maktablarimiz o'zimizdan yetishib chiqqan jismoniy tarbiya o'qituvchilari bilan to'liq qamrab olinadi. Ahmadjon ham kelajakda yaxshi murabbiy bo'lishiga ishonaman, – deydi Bog'ot tumani XTB boshlig'i Tohirboy Mirzayev.

Bugungi kunda tumanning faxriga aylangan Ahmadjon Ahmedovning kelgusida bundan-da yuqori marralarni zabt etishiga ishonamiz.



Nurbek QIDIRALIYEV

Gazetamizning bu galgi sonida sizlarni dunyodagi antiqa mehmonxonalar bilan tanishtiramiz. Ajabmas, kuni kelib siz ham ana shunday go'zal maskanlarga sayohatga borsangiz.

## DUNYODAGI ANTIQA MEHMONXONALAR




Shvetsiyadagi antiqa muz mehmonxonasi jazirama o'lkalardan kelgan sayyohlar uchun zavq bag'ishlashi aniq. Ushbu muz xonalarni butun dunyodan tashrif buyurgan rassom va haykaltaroshlar yaratdi. E'tiborlisi, u yerdagi barcha jihozlar muzdan yasalgan.



Ertaklar olamiga tushib qolishni istaysizmi? Unda Chilidagi Uilo-Uilo qo'riqxonasida joylashgan tog' uychasiga tashrif buyuring. U yerga siz osma ko'prik orqali yetib borasiz. Bu sayohat sizga unutilmas onlarni hadya etadi, ishonavering.

Kenianing Nayrobi shahrida joylashgan antiqa mehmonxona nafaqat bolalar, balki kattalar uchun ham ajoyib onlarni tortiq etadi. Bu yerda tabiat qo'ynida, jirafalar bilan birgalikda kun-u tuningizni maroqli o'tkazishingiz mumkin.



Internet manbalari asosida NIGORA tayyorladi

Pazanda qizga!



Erta tongda nonushtaga nima tayyorlasam ekan, deya o'ylanayotgan kichik bekalarimizga bugungi tavsiyamiz juda asqotadi, degan umiddamiz.

## GURUCHLI QUYMOQ

**Kerakli masalliq:** 1 piyola guruch, 3 dona tuxum, 30 gr qattiq pishloq, 3 dona sosiska, chorak bankada konservalangan jo'xori, ko'katlar.

**Tayyorlanishi:** 1 piyola guruch pishirib olinadi. So'ng, tovaga solib, bir tekisda yoyiladi. Keyin 3 dona tuxum chaqib atalanadi va ustidan solinadi. Shundan so'ng, 5-10 daqiqaga idish qopqog'i yopiladi.

3-4 ta sosiska o'rtacha kattalikda to'g'raladi. Keyin sosiska va jo'xori solinib, ustidan pishloq qirg'ichdan o'tkaziladi va 10 daqiqa dimlanadi. Lycopchalarga kesib solingan taom usti shivit yoki kashnich bilan bezatiladi.

Yoqimli ishtaha!

## FOYDALI MASLAHATLAR

Tuxumning oqini uning ikki tomonidan igna bilan teshib ajratib olsa bo'ladi. Tuxumning sarig'i esa ichida qoladi.

Po'sti bilan qaynatilgan kartoshka ezilmasin desangiz, uni bir-ikki joyidan teshing.

Qovurilgan kartoshkaning ta'mini yaxshilash uchun unga 1 choyqoshiq xantal qo'shing.

Parranda go'shtini qovurishdan biroz oldin tuzli suv sepsangiz, yanada mazali bo'ladi.

Muzlatilgan baliqni tezroq eritmoqchi bo'lsangiz, plastik paketdagi iliq suvga solib qo'ying.

To'yimlili va ta'mini saqlab qolish uchun loviya qaynab chiqqanidan keyin suvini to'kib, yana boshqa suv va o'simlik yog'i solib qaynating.

Baliq bo'laklari yoyilib ketmasligi uchun qovurishdan oldin tuz seping, unga yaxshilab belab oling va qizigan yog'ga soling.


Archilgan olmalar qoraymasin desangiz, ularni tuzli sovuvq suvga solib qo'ying.

Ko'pchigan xamir yanada oshib ketmasligi uchun qog'ozni ho'llab, silkitib tashlang va xamirni o'rab qo'ying.

Qayladagi qaymoq yumaloqlanib qolmasin desangiz, ishlatishdan oldin uni ozroq sut solib suyultiring.

## BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR!

- Izvosh arava (tarix).
- Neft tashuvchi kema.
- Temuriy qabila (tarix).
- Yozdagi ertalabki shudring (sinonim).
- Tasalli.
- Asqad ... (yozuvchi).
- Sportdagi musobaqa tartibi.
- Jizzaxdagi tuman.
- Fil a'zosi.
- Chegara,
- hudud (sinonim).
- Hindistondagi viloyat (shtat).
- Boshliq, qo'mondon (tarix).
- Bronzali bo'yoq.
- Yirik epik asar.
- Iroqning poytaxti.
- Amerika cho'l o'simligi.
- Tinchlik qushi.
- Yirtqich hayvon.



Tuzuvchi:  
Fayzulla ABDULLAYEV

NARGIZA tayyorladi